

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

## FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

### Tahrir hay'ati

**Bosh muharrir**  
**Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)  
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)  
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)  
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)  
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)  
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)  
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)  
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)  
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)  
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)  
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)  
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)  
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

### Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)  
OTAJONOV S. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)  
KARIMOV E. (O'zbekiston)  
RASULOV R. (O'zbekiston)  
ONARQULOV K. (O'zbekiston)  
YULDASHEV G. (O'zbekiston)  
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)  
DADAYEV S. (O'zbekiston)  
ASQAROV I. (O'zbekiston)  
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)  
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)  
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)  
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)  
YULDASHOV A. (O'zbekiston)  
XOLIQOV S. (O'zbekiston)  
MO'MINOV S. (O'zbekiston)  
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)  
SHUKUROV R. (O'zbekiston)  
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)  
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)  
KASIMOV A. (O'zbekiston)  
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)  
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)  
G'OFUROV A. (O'zbekiston)  
ADHAMOV M. (O'zbekiston)  
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)  
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)  
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)  
USMONOV B. (O'zbekiston)  
ASHIROV A. (O'zbekiston)  
MAMATOV M. (O'zbekiston)  
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)  
XAKIMOV N. (O'zbekiston)  
BARATOV M. (O'zbekiston)

**Muharrir:** Sheraliyeva J.

**Tahririyat manzili:**

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.  
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60  
Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

**Manzil:** 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,**  
**2022.**

<b>K.Kodirov</b>	
O'zbekiston Respublikasida mahkumlarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilish .....	118
<b>B.Jumayev</b>	
Gastronomik turizm tushunchasining paydo bo'lishi va uning tarixiy asoslari.....	122
<b>U.Usarov</b>	
Rossiya imperiyasi rasmiy amaldorlari va taftish komissiyalarining Turkistondagi yer-suv munosabatlariga doir faoliyatiga oid ba'zi mulohazalar.....	129
<b>SH.Tosheva</b>	
VIII – XII asrlarda O'rta Osiyo shaharlarida kasbiy o'zlikning o'ziga xos xususiyatlari .....	133
	ADABIYOTSHUNOSLIK
<b>A.Sabirdinov</b>	
Tuganmas ilhom manbai .....	138
<b>Q.Yo'lchiyev</b>	
Lirik janr haqida ba'zi mulohazalar .....	142
<b>G.Mashrapova</b>	
Safar semantikasi va genezisiga doir ayrim mulohazalar .....	148
<b>SH.Jumanova</b>	
Usmon Azim she'riyatida kuz motivi .....	151
<b>E.Shevchenko</b>	
O'zbek adabiyot sharhi: boshlanish davridan hozirgi kungacha .....	155
<b>G.Nazarova</b>	
Ingiliz hamda o'zbek adabiyotida mifologik obrazlarning mifologizatsiyasi va ularning o'ziga xosligi.....	161
<b>D.Xusenova</b>	
Lev Tolstoyning hayoti va ijodiy faoliyatida sharqning o'rni.....	165
	TILSHUNOSLIK
<b>X.Maxsudova, SH.Shahobiddinova</b>	
Эргонимларнинг лексик-семантик хусусиятлари .....	169
<b>N.Achilova</b>	
Nemis va o'zbek tillarida faunaga oid frazeologizmlar tasviri.....	173
<b>Sh.Sultonova, O.Usmonov</b>	
Diniy frazeologizmlarning ichki shakli dinamik hodisa sifatida .....	178
<b>Z.Akbarova, G.Sodiqova</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ko'p ma'noli so'zlarni o'rgatishning psixofiziologik va psixolingvistik asoslari .....	182
<b>I.Saydamatov</b>	
Ingiliz va o'zbek tillarida frazeologik tizimlarning o'ziga xos xususiyatlari.....	186
<b>Sh.Amonturdieva</b>	
Diniy uslubni yuzaga keltiruvchi ekstralingvistik omillar .....	191
<b>M.Batirxanova</b>	
Somatik frazeologizmlarning tarjima masalalarida pragmatik funksiyalarining tadqiqi .....	195
<b>N.Djalilova</b>	
Nofilologik oliy o'quv yurtlarida talabalarni chet til o'qitish kommunikativ kompetensiyasi .....	199
<b>A.Zinatullina</b>	
O'zbek va fransuz tillarini tarjima qilishdagi qiyinchiliklar .....	203
	MATEMATIKA
<b>A.O'rinov, M.Azizov</b>	
Yuqori juft tartibli xususiy hosilali differensial tenglama uchun to'g'ri to'rtburchakda boshlang'ich-chegaraviy masala .....	207
<b>K.Xalilov</b>	
Singulyar koeffitsiyentli parabolo-giperbolik tenglama uchun integral shart va Bitsadze-Samarskiy sharti qatnashgan masalalar.....	225
<b>T.Xasanov</b>	
Davriy cheksiz zonali funksiyalar sinfida manbali yuklangan Korteveg-de Friz tenglamasiga qo'yilgan koshi masalasi.....	232

**SOMATIK FRAZELOGIZMLARNING TARJIMA MASALALARIDA PRAGMATIK  
FUNKSIYALARINING TADQIQI**

**ИССЛЕДОВАНИЕ ПРАГМАТИЧЕСКИХ ФУНКЦИЙ СОМАТИЧЕСКИХ  
ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В ВОПРОСАХ ПЕРЕВОДА**

**RESEARCH OF THE PRAGMATIC FUNCTIONS OF SOMATIC PHRASEOLOGY IN  
TRANSLATION ISSUES**

**Batirxanova Madina Oybekovna<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Batirxanova Madina Oybekovna

– Fargʻona davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya**

*Mazkur maqolada somatik frazeologik birliklarning tilshunoslikning pragmatik taxlili bo'yicha tarjima masalalari atroflicha talqin etildi. Madaniy kodlari orqali ularning pragmatik jihatlariga yondashib, ularning muloqotdagi funktsiyasiga to'xtaldi. Somatik frazeologik birliklarning kommunikativ jarayonda so'zlovchining tinglovchiga nisbatan emotsional xis-tuyg'usi, niyati, vaziyat va holatlarning baholanishini atroflicha yoritildi. Maqolada o'zbek, rus va ingliz tillarida somatik tarkibiy qismlarga ega bo'lgan frazeologik birliklarning lingopragmatik jihatlar haqida so'z boradi. Tarjima - bu to'g'ri aloqa qilishning to'g'ri usuli va pragmatika - bu aloqa qilishda tilni qanday to'g'ri ishlatish. Unda madaniy tilshunoslikka, pragmatik idrok va madaniyat va til o'rtasidagi munosabatlarga turli yondashuvlar tahlil qilindi.*

**Аннотация**

*В данной статье анализируются вопросы прагматических функций соматических фразеологизмов через прагматическое направление лингвистики. Посредством культурных кодов исследовались их прагматические аспекты концентрируясь на их функцию в общении. В коммуникативном процессе соматических фразеологизмов оценивались эмоциональное переживание, чувства, желания, обстоятельство и состояние говорящего к слушателю. В статье рассматриваются лингопрагматические аспекты фразеологических единиц соматическими компонентами на узбекском, русском и английском языках. Перевод - это правильный способ общения, а прагматизм - это то, как правильно использовать язык в общении. Он проанализировал различные подходы к культурной лингвистике, прагматическому пониманию и взаимосвязи между культурой и языком.*

**Abstract**

*The article is devoted to the study of the matters of the somatic phraseological units in pragmatic aspect as one of the branches of linguistics. Concentrating on their function we were studied pragmatic aspects of cultural codes. In the communicative process of somatic phraseological units, the emotional feelings, desires, circumstances and the state of the speaker to the listener were assessed. It discusses the lingopragmatic aspects of phraseological units with somatic components in Uzbek, Russian and English. Translation is the right way to communicate, and pragmatism is how to use the language correctly in communication. He analyzed various approaches to cultural linguistics, pragmatic understanding and the relationship between culture and language.*

**Kalit so'zlar:** somatik frazeologizm, lingvomadaniy kod, antropomadaniy, antropotsentrik, pragmatika, kommunikativ-pragmatik, konnotatsiya, ekspressivlik, kontseptual, emotsional, potentsial, tana, tana a'zolari.

**Ключевые слова:** соматический фразеологизм, лингвокультурный код, антропокультурный, антропоцентрик, прагматика, коммуникатив-прагматик, коннотация, экспрессивность, концептуал, эмоционал, потенциал, тело, части тела.

**Key words:** somatic phraseologism, linguocultural code, anthropocultural, anthropocentric, pragmatic, communicative-pragmatic, connotation, expressivity, conceptual, emotional, potential, body, parts of body.

**KIRISH**

Har kim o'zining nutqi boy, hissiy va ifodali bo'lishini xohlaydi. Bunga erishishning asosiy usullaridan biri bu turli xil frazeologik iboralar, maqollar, so'zlar, rangli iboralarni oqilona ishlatishdir.

XXI asrda tilshunoslikning eng aniq yo'nalishlaridan biri bu tilshunoslik va pragmatikaning tuzilishi va mantiqiy ma'nosidagi bog'liqligi. Pragmatika falsafasi bilan bog'liq asosiy parametrlar 1920-yilda Morris tomonidan ishlab chiqilgan. Keyinchalik zamonaviy lingvistik yo'naltirilgan pragmatika Nitgenshteynning ta'sirli g'oyalari va nutq axtarlari nazariyasi asosida ishlab chiqilgan [7].

Italyan olimi M.B.Papi ingliz va italyan tillarida madaniy jihatdan "qo'l" leksemasining frazeologik va ko'chma ma'noda qo'llanishini tahlil qilar ekan lingvokulturologik aspektning

frazeologik birliklarda o'z aksini qay yo'sinda topishi ingliz va italyan tillari misolida ko'rib chiqadi va ularning bir qancha o'xshashlik va o'ziga xosliklarga ega ekanligini qayd etadi [3].

G'.Salomov «Rus tilidan o'zbek tiliga maqol, matal va frazeologizmlarni tarjima qilish printsiplari» mavzuida nomzodlik, «Badiiy tarjimaning nazariy-uslubiy muammolari va tarjima aniqligi masalalari» mavzuida doktorlik dissertatsiyasini, Somatik frazeologizmlarning lingvomadaniy tadqiqida ularning antropotsentrik xususiyatlarining diqqat markazida bo'lishi frazeologik birliklardagi inson omilining alohida o'rni tutishi bilan bog'lash mumkin. Mver Kaydar Kadxim somatik frazeologizmlarni antropomadaniy tuzilmalar sifatida olamni bilish jarayonida insonning analitik harakatlanish tajribasi orqali voqelanishini ta'kidlaydi [5]. Shuningdek, ushbu tadqiqotchi somatik frazeologizmlarning madaniy kodlari orqali o'ziga xos xususiyatlarini bevosita antropotsentrizm va kognitiv tilshunoslik yo'nalishlarida tadqiq qilishni tavsiya etadi. Biz esa o'z tadqiqotimizda somatik frazeologik birliklarning madaniy kodlari orqali ularning pragmatik jihatlariga yondashib, ularning muloqotdagi funktsiyasiga e'tiborimizni qaratamiz.

Inson nutqi o'zining rang-barang jilovlanishi, serma'noligi va bo'yoqdorligi orqali ifodalanadi. Inson nutqining turli ma'nolar orqali jilovlanishini, tinglovchiga ma'lum hissiyot bag'ishlashini tilda frazeologik birliklar namoyon etadi. Frazeologik birliklar ko'chma ma'noga ega bo'lib, so'zlovchining niyatini tinglovchiga yetkazadi. Bu esa frazeologik birliklarning pragmatik xususiyati orqali izohlanadi. Shu bois frazeologik birliklarning pragmatik jihatlar haqida fikr yuritsak, kommunikativ jarayonda so'zlovchining tinglovchiga nisbatan emotsional his-tuyg'usi, niyati, vaziyat va holatlarning baholanishini atroflicha talqin etish mumkin.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI

Kommunikativ jarayonida frazeologik birliklar turli ma'no anglatadi. Shu ma'noni frazeologizmlarning pragmatik funktsiyalari belgilaydi. Muloqotda turli vaziyatlarda frazeologik birliklar bir xil ma'no ifoda eta olmaydi. Shuning uchun ma'lum bir frazeologik birliklarning kommunikativ-pragmatik funktsiyalari turli kontekstda farqlanadi.

Nutqda frazeologizmlarning kommunikativ-pragmatik jihatlar milliy ong hamda milliy madaniyatni voqelantiradi [2]. Ma'lumki, har qaysi halqning madaniyati, urf-odati, an'analari tilda ham aks etadi.

Somatik frazeologizmlarning madaniy kodlariga asosan ajratib, ularning pragmatik funktsiyalariga e'tibor qaratamiz. Somatizmlarning pragmatik tadqiqida ularning ma'nolaridagi ekspressivlik va bo'yoqdorligi maxsus semantik tizimni belgilaydi va shu asosida tinglovchiga turli ta'sir ko'rsatadi. Aksariyat tadqiqotchilar frazeologizmlarning bo'yoqdorligini konnotativ element sifatida izohlaydi. Bu borada V.N.Teliyaning izohi o'rinlidir: "Konnotatsiya doimo ekspressivlikni ifodalaydi, shu tufayli, konnotatsiya ekspressivlikning ifodasi deb ta'riflash joiz"[4]. Demak, frazeologizmlar muloqotni emotsional va ekspressiv bo'yoqdorligi bilan boyitadi, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi emotiv-baholash jarayonni ta'minlaydi. Frazeologizmlarning ekspressivlik, baholash va emotsional bo'yoqdorligi bir biriga ta'sir etgan holda ma'lum pragmatik ta'sir ko'rsatadi. Shu bois frazeologizmlardagi konnotatsiyalar bevosita pragmatika bilan bog'lanishni ta'minlaydi. S.A.Sasina frazeologizmlarning pragmatik funktsiyasi tinglovchiga ta'sir etishida deb ifodalaydi [3]. A.F.Artyomova frazeologizmlarning pragmatik o'lchamlariga ekspressivlikdan tashqari kontseptuallik hamda matnning ichki, ko'chma ma'lumot tashuvchi xususiyatini belgilaydi [1]. Demak, somatik frazeologizmlarning pragmatik xususiyatlarini ifodalashda ularning ekspressivlik, emotsionallik, bo'yoqdorlik, kontseptuallik va ko'chma ma'no bag'ishlash kabi o'lchamlarini belgilaymiz.

Frazeologizmlarning kommunikativ jarayonda tahlil qilar ekanmiz, somatik frazeologizmlarning muloqot jarayonida turli mazmunga ega ekanligi, ularning bo'yoqdorligi nutq jaranida namoyon bo'ladi.

Har bir matn o'z xususiyatiga asosan kommunikativ jarayonni anglatadi. Kommunikativ jarayonda ma'lumot uzatuvchi tomonidan berilgan ma'lumot qabul qiluvchi tomonidan anglanishi kerak. Shu tarzda qabul qiluvchi ma'lum bir jihatdan matn bilan bog'lanib, pragmatik munosabatlarni amalga oshiradi. Matnda berilgan ma'lumot orqali qabul qiluvchida ma'lumotga nisbatan pragmatik ta'sir namoyon bo'lib, matnning pragmatik potentsiali sifatida talqin etiladi. Matnning pragmatik potentsiali ma'lumot uzatuvchi tomonidan ma'lumot uzatishdagi mantiqiy va konnotativ ma'nga ega til vositalari hisoblanadi. Natijada matn kommunikativ potentsialga ega

## TILSHUNOSLIK

bo'lib, ma'lumotni qabul qiluvchiga kommunikativ ta'sir o'tkazadi. Ayrim holatda matnning pragmatikasi ma'lumot uzatuvchining asl kommunikativ niyatiga mos kela olmasligi ham mumkin. Shuning uchun ma'lumot qabul qiluvchi, matn va ma'lumot uzatuvchi o'rtasida ma'lum bir munosabatlar shakllanishi kerak. Ma'lumot qabul qiluvchiga pragmatik ta'sir o'tkazish har qaysi kommunikativ jarayon muhim qismidir. Pragmatik ta'sir o'tkazish nafaqat bir tilda sodir bo'layotgan kommunikativ jarayonda, balki bir tildan ikkinchisiga o'girilayotganda ham diqqatga sazovordir. Tarjima qilinayotgan matnlar orqali matnni qabul qiluvchiga nisbatan kerakli ta'sir o'tkazish tarjimaning pragmatikasi yoki tarjimaning pragmatik aspekti sifatida izohlanadi. Shuning uchun tarjimon tilni nafaqat lingvistik xususiyatlarini, balki ekstralingvistik tomonlarini ham bilishi zarurdir. Albatta, tarjima jarayonida har qaysi tarjimonda tarjima qilinayotgan matnga o'z shaxsiy munosabat bo'lib, tarjimada erkinlik kuzatishimiz mumkin. Tarjima erkinligi esa boshqa tilga o'girilgan matnning aniqligi, ma'lumotlarning bir hil berilishini ta'minlamaydi. Shuning uchun, tarjimonning pragmatik neytral bo'lishini talab qilish asosiy masalalardan biri deb hisoblanadi. Lekin pragmatik neytrallik tarjimada doimo ham kuzatilmaydi. E.Xemingueyning "Chol va dengiz" asarining o'zbek va rus tillaridagi tarjimasiga e'tiborimizni qaratamiz. Original matnda "parents had told him" ifodasi rus tiliga so'zma-so'z tarjimasiga orqali uzatilmogda: "родители сказали мальчику". O'zbek tilida esa bu ifoda "qulog'iga quydilar" somatik frazeologik iborasi orqali tarjima qilinmogda. Shu tariqa tarjimon o'zbek tilining ichki xususiyatlarini, ya'ni kommunikativ muloqotda oddiy halqning frazeologik iboralardan ko'p foydalanishi ko'zga tashlanmogda. Tarjimon erkin tarjimadan foydalanar ekan, o'zbek tilidagi matnda "aytmoq" ma'no beruvchi somatik frazeologik iborasi konnotativ ma'no berib, aytilgan gapning pragmatik ta'sirini kuchaytirib bermogda. Tarjimaning pragmatik ta'siri aynan o'zbek xalqining o'ziga xos xalqona tilining xususiyatlarini namoyon etadi.

Ernest Hemingueyning "Alvido, Qurol!" asarini tahlilga tortar ekanmiz, bir tildan ikkinchi tilga frazeologik birliklarning o'z shakli va obrazli asoslarini aynan saqlagan holda tarjima qilinganligini, uni uchinchi, to'rtinchi va hakazo tillarga tarjima qilinganda aynan shu usullardan foydalanishlik maqsadga muvofiq bolar edi.

*The town was very nice and our house was very fine. The river ran behind us and the town had been captured very handsomely but the mountains beyond it could not be taken and I was very glad the Austrians seemed to want to come back to the town some time, if the war should end, because they did not bombard it to destroy it but only a little in a military way. (Hemingway E. "A Farewell to Arms", 1929).*

Asardagi "the town had been captured very handsomely" (shahar juda chiroyli bosib olindi) birikmasini rus tiliga tarjimasida frazeologik ibora orqali tarjima qilingan. Bunda ko'rinib turibdiki, so'zma-so'z tarjima mos kelmasligi ma'no jihatdan bo'yoqdorligi oshishi ya'ni konnotativ ma'nosi kuchayishi kuzatilmogda.

*Городок был чудесный и дом прекрасный. Река осталась сзади, город достался нам как на блюдечке, а вот горы взять не удалось, и оставалось только радоваться тому, что австрийцы, судя по всему, намеревались когда-нибудь, если война закончится, вернуться в городок, так как они не старались его разрушить с помощью своей артиллерии, а наносили, с военной точки зрения, минимальный урон. (Перевод. С. Таск, 2015).*

Yuqoridahi misralardan ko'rib turganimizdek, rus tiliga S.Task frazeologizmlar orqali tarjima qilinganligi ammo somatizm komponenti ishtirokisiz etmaganligiga qaramay konnotativ ma'no bo'yoqdorligi, pragmatik aspektlari jihatdan rus kitobxonni tushunarli ya'ni kommunikativ-pragmatik qa'bul qilinishiga imkon yaratadi.

*Shahar juda ajoyib, biz turgan uy esa juda chiroyli edi. Daryo bizning ortimizda oqardi, shaharni ham osongina qo'lga kiritdik, lekin nariroqdagi tog'larni ishg'ol qila olmadik; men shunisiga xursand edimki, avstraliyaliklar qachonlardir urush tugasa, qaytib boramiz-ku, degan o'y bilan bo'lsa kerak, shaxarni aytarli bombardimon qilishmas, yo'lga po'pisa qilib qo'yardilar, xolos. (I.G'ofurov)*

Ba'zi hollarda, rus tilida bir so'zning ko'chma ma'nosiga asoslangan ibora boshqa tillarda tamomila bo'lak bir so'zning polisemantik ma'nosi asosida tuzilgan iboraga ekvivalent bo'lib keladi.

Rus tilidagi “*город достался нам как на блюдечке*” iborasi o‘zbek tiliga “*shaharni ham osongina qo‘lga kiritdik*” deya somatik frazeologik birlik orqali tarjima qilinmoqda.

Tadqiqot materiallari somatik frazeologizmlarning badiiy ADABIYOTLAR tahlili; Ingliz, rus va o‘zbek badiiy asarlari. Somatik frazeologiyalarni uch tilda ishlatishda farq va o‘xshashliklarni ko‘rsatish uchun qiyosiy, tavsiflovchi usullardan foydalanilgan.

Demak, tarjimada pragmatik neytrallikni doimo ham saqlash tilning lingvomadaniy xususiyatlarini ochib bera olmaydi. Ta’kidlashimiz mumkinki, erkin tarjima bunday holatlarda samarali tarjima usuli bo‘lib, tarjima qilinayotgan matnning rang-barangligini ta’minlaydi. A.Qodiriyning “O‘tgan kunlar” asaridagi “*o‘zini to‘rt ko‘z bilan kutib...*” gapi rus tiliga “*ждёт не дожётся его с нетерпением...*” ifodasi orqali uzatilmoqda. Bu holatda rus tilidagi ibora konnotativ bo‘yoqdorligi yo‘qotgan. Aynan o‘zbek halqona tili xususiyati vujudga chiqmagan. Shunday qilib, bir tildan ikkinchi tilga somatik frazeologik birlik tarjima qilinarkan, ularning shu birikma tarjima qilinayotgan tilning tabiatiga qanchalik monan bo‘lishi, sun’iy birikmaga aylanib qolmasligi, kitobxonlarga maqbul bo‘lishi kerak.

### XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, tarjimada kommunikativ jarayonning pragmatik aspekti muhim masalalardan bo‘lib, uning tadqiqi alohida e’tiborga ega. Shunday qilib ingliz tilidagi somatik frazeologizmlarning o‘zbek tilidagi muqobillari haqida gap ketganida ularning to‘liq ekvivalentlar, analoglari(muqobillar) va ekvivalentsiz frazeologik birliklar nuqtai nazardan tahlil qilish mumkin.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Артемьева А. Ф. Значение фразеологических единиц и их прагматический потенциал.: Дис. ... док. фил. наук. Пятигорск, () 1991. - 308 с. (Artemyeva A. F. Meaning of phraseological units and their pragmatic potential.: Dis. ... doc. Phil. Sciences. Pyatigorsk.)
2. Богус З.А. Соматизмы в разносистемных языках: семантика-словообразовательный и лингвокультурологический аспекты.:Дис. ...канд.фил.наук. Майкоп, 2006.- 11 с. (Bogus Z.A. Somatisms in languages of different systems: semantics, word-formation and linguoculturological aspects.: Dis. ...candidate of phil.sci. Maikop)
3. Papi M.B. Idiomatic and figurative uses of “hand” in English and “muno” in Italian: embodiment and cultural filters. // Main Session Talks. Pisa, 2013. (Папи М.Б. Идиоматическое и переносное употребление слов «рука» в английском и «муно» в Итальянский: воплощение и культурные фильтры. // Основная сессия Доклады. Пиза)
4. The used article: Шабанов Жумали, ТошДШИ “Туркий тиллар” кафедраси доценти. Шабанова Садаф Джумалиевна, ТошДШИ магистранти. “Соматизмлар иштирок этган ибораларнинг замонавий тилшуносликда ўрганиш масалалари”. “XXI аср: фан ва таълим масалалари” илмий электрон журнали. №4, 2018 йил, Б.-5. (Шабанов Джумали, доцент кафедры «Тюркские языки» Ташкентского государственного педагогического института. Шабанова Садаф Джумалиевна, магистр Ташкентского государственного педагогического института. «Проблемы изучения выражений с участием соматизмов в современном языкознании». Научный электронный журнал «XXI век: вопросы науки и образования»)
5. Сасина С.А. Фразеологические единицы терминологического происхождения в современном английском и русском дискурсах.:Дис. ...канд. фил. наук. Краснодар, 2007.- 9 с. (Sasina S.A. Phraseological units of terminological origin in modern English and Russian discourses.: Dis. ...cand. Phil. Sciences. Krasnodar)
6. Телия В.Н. Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М : Шк. "Языки рус. культуры", 1996. – 284 с. (Teliya V.N. Russian Phraseology: Semantic, Pragmatic and Linguistic and Cultural Aspects. - M: Shk. "Languages of Russian culture)
7. Кадхим М.Х. Соматические фразеологизмы в русском и арабском языках: характеристика, функции и классификация.: Ст. Иран, Минск, 2021. – 3 с. (Kadhim M.Kh. Somatic phraseological units in Russian and Arabic: characteristics, functions and classification.: Art. Iran, Minsk)
8. Моррис Ч.У. Основания теории знаков.– М.: 1983, С. 45-97. (Morris C.W. Foundations of the theory of signs)

(Taqrizchi: Sh.Iskandarova - filologiya fanlari doktori, professor)